# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№4



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 522 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Viktorovna,** Candidate of Economic Sciences (Moscow)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников ....18
**Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович**

Oʻzbekistonda faoliyat koʻrsatayotgan soliq toʻlovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini ragʻbatlantirish masalalari ....26
**Toʻxtaboyev Nuriddin Isomiddin oʻgʻli**

Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review ....32
**Ismoilova Maftuna Mamat qizi**

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari ....38
**Primova Shaxlo Jumayevna**

Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash ....43
**Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi**

Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish ....52
**Qodirova Zilola Maxmud qizi**

Qoʻshilgan qiymat soligʻi maʼmuriyatchiligining ilgʻor xorij tajribasi ....57
**Erkayev Nodir Xudayberdiyevich**

Oʻzbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yoʻnalishlari ....71
**Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Roʻzigul Akmaljon qizi**

Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution ....76
**Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**

Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va Oʻzbekiston mehnat bozoridagi oʻzgarishlar ....89
**Tilabova Kumush Farhod qizi**

Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish ....95
**Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek oʻgʻli, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich**

"Taʼlim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish" ....101
**Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.**

Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan ....105
**Toyirova Hamida Umedovna**

Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli ....114
**Shakhlo Davirova**

2020–2024-yillarda oʻzbekistondagi iqtisodiy oʻsish dinamikasi ....120
**Akbarov Nodir, Ibodullayev Navroʻzbek**

Oʻzbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yoʻnalishlari ....125
**Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi**

Sugʻurta tizimiga raqamli texnologiyalarning taʼsiri ....133
**Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil oʻgʻli**

Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security ....138
**Mamayusuf Abdusamatov**

Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yoʻnalishlari ....143
**Ataniyazov Jasurbek Xamidovich**

Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров ....150
**Ахмедходжаев Равшан Темурович**

Xoʻjalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish ....157
**Safarov Alisher Ibrohim oʻgʻli**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi ........ 163
**Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi**

Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari ........ 167
**Mirdjalilova Dildora Shuxratovna**

Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innavatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari ........ 173
**Ulmasova Oygul Baxtiyorovna**

Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом ........ 178
**Бердиева Дилфуза Ахатовна**

Improving long-term assets accounting and auditing ........ 184
**Gulboy Yusupov**

Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli ........ 189
**Bozorov Alisher Ro'zimurodovich**

Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar ........ 193
**Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur**

Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar ........ 200
**Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li**

Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish ........ 206
**To'qliyev Abdirauf Bahodir o'g'li**

Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri ........ 214
**Bozorova Saxobat Abdujapparovna**

Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса ........ 219
**Садикова Раъно Абдуллаевна**

Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati ........ 225
**Salixova G.J**

Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi ........ 230
**Samandarov Og'abek Alisher o'g'li**

Measuring methodologies of influence of the esg factors ........ 235
**Tolipova Feruza Alisherovna**

Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития ........ 240
**Омонов Отажон Журакулович**

Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish ........ 249
**Quziev Ravshan Ramazanovich**

Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана ........ 253
**Каршиева Мохинур Олим кизи**

Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida) ........ 257
**Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich**

Умные города как фактор экономического развития ........ 261
**Нозима Кахрамоновна Хакбердиева**

Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан ........ 266
**Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна**

Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish ........ 270
**Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich**

Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash ........ 275
**Fozil Xolmurotov**

Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlari ........ 282
**Quliyev Begimqul Melikovich**

O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi....................289
**Eshqobulova Charos O'roq qizi**
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency....................292
**Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna**
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish....................298
**Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich**
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari....................303
**Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi**
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan)....................307
**Azimov Shakhzod**
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari....................314
**Xidirov Shohrux Bobir o'g'li**
Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari....................319
**Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich**
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях....................323
**Джураева Гузаль Шавкатовна**
Sug'urta zararlarini baholashda sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari....................328
**Shoraximova Zilola Nasirdjonovna**
O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari....................332
**Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li**
Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta'sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili....................336
**Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi**
Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish....................342
**Xaydarova E'zoza Shukurullayevna**
Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash....................352
**Xolto'rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna**
O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta'siri....................358
**Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich**
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini aholi tomonidan xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda tizimlar integrasiyasi istiqbollari....................362
**Ochilov Abdujabbor Akramovich**
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda chet el tajribasining afzalliklari....................369
**Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna, Akbarova Iroda Samatovna**
Qurilishda loyiha boshqaruvi konsepsiyasining mazmuni....................375
**Pulatov Shaxron Axmedovich**
Loyiha budjeti va uning ijrosini ta'minlash masalalari....................379
**Murodova Mohigul Chori qizi, Xamidov Odil Davurovich**
Qishloq xo'jaligidagi chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy faoliyatini o'rta muddatli statistik prognozlarini tuzish (Andijon viloyati misolida)....................390
**Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich, Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li**
Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo'llari....................397
**Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Holmirzayeva Gulruh Akbarovna**
Fond bozorida kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti....................403
**Yulduz Usmanova**
Jahon bozoriga kirishda elektron bozorlarning ahamiyati....................411
**Hamroyeva Umida**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Comparative statistical analysis of foreign trade indicators of the Republic of Uzbekistan ........ 415
**Abdujalilova Bibisora Bakhodir kizi**

Yaxshi korporativ boshqaruv orqali aktsiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini oshirish: metodologik yondashuv ........ 423
**Urinov Bobur Nasilloyevich**

JAS – barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning yapon modeli vositasi ........ 423
**Baynazarov Elmurod Erkinovich**

Xususiy banklarning depozit operatsiyalarini mustahkamlash yo‘llari ........ 435
**Olimov Abror Axadjon o‘g‘li**

The impact of digital financial technologies on the financial system ........ 439
**Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o‘g‘li, Pardayev Olim Mamayunusovich**

Korxona eksport salohiyatini oshirishning “yashil” marketing mexanizmi ........ 443
**To‘rayev Shohrux Halimovich**

O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda turistik oqim mavsumiyligini boshqarish yo‘llari ........ 448
**Fayazov Muxiddin Sobirovich**

Sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha xalqaro tendensiyalar ........ 453
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Ayollar tadbirkorligining tarixi: O‘zbekiston va dunyo bo‘yicha rivojlanishi ........ 459
**Burxanova Sabo Tulanovna**

Qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlar risklarini pasaytirishni takomillashtirish yo‘llari ........ 466
**Xalilov Umid Ishtemirovich**

Korxona moliyaviy ko‘rsatkichlari tahliliga fundamental yondashuv ........ 470
**Dilshodjon O‘rinov, Sanobar Ismoilova**

Iqtisodiy o‘zgarishlar davrida korxonalar moliyaviy barqarorligining ta’minlanishi omil va mezonlari ........ 475
**Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi**

Cash accounting as a tool of financial discipline and transparency in the public sector ........ 481
**Marqaboyev Sardorbek Abdusalomovich, Annayev Abdurasul Abdurashidovich**

Пути совершенствования практике финансирования социального предпринимательства ........ 486
**И.Ж.Исаков**

O‘zbekistonda an’anaviy resurslar va qayta ishlanadigan energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlaridan unumli foydalanish ........ 490
**Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi**

Ijtimoiy salohiyat – hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning boshqaruv obyekti sifatida ........ 497
**Erkayeva Gulbahor Panjiyevna, Zoirov G‘olibjon Toshtemir o‘g‘li**

Xorazm oziq-ovqat bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda marketing faoliyatlarini baholash usullari ........ 503
**Abdikarimova Zilola Baxramovna**

Переход к зелёной энергетике узбекистана как возможность достижения устойчивого экономического роста ........ 508
**Бай Жин Хуан (Bai Jin xuan)**

Изучение условий финансирования проектов международными банками развития ........ 513
**Жалилова Барнохон Суръатжоновна**

O‘zbekiston respublikasi budjet jarayonida budjetlarning ochiqligi va jamoatchilik ishtirokini oshirish ........ 517
**Shodmonqulov Temurbek Ulug‘bek o‘g‘li**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET JARAYONIDA BUDJETLARNING OCHIQLIGI VA JAMOATCHILIK ISHTIROKINI OSHIRISH



**Shodmonqulov Temurbek Ulug‘bek o‘g‘li**
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti
ORCID: 0009-0003-0043-3148

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi rivojlanishining hozirgi holati, budjetning ochiqligi darajasi va fuqarolarning budjet jarayonidagi ishtirokini ta’minlash mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro tajriba asosida ochiq budjet indekslari, fuqarolar uchun budjet tushunchasi va budjet siyosatining shaffofligini oshirishga qaratilgan choralar o‘rganilgan. Maqola yakunida budjet jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va ochiqlikni ta’minlash bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: budjet, budjet tizimi, ochiq budjet, fuqarolar budjeti, budjet siyosati.

Abstract: This article analyzes the current state of the budget system in the Republic of Uzbekistan, with a particular focus on the level of budget transparency and mechanisms for ensuring public participation in the budgeting process. Based on international practices, the research explores open budget indices, the concept of a citizens' budget, and measures aimed at improving transparency in budget policy. The article concludes with practical recommendations to enhance public engagement and openness in budgetary processes.

Key words: budget, budget system, open budget, citizens' budget, budget policy.

Аннотация: В статье проанализировано текущее состояние бюджетной системы Республики Узбекистан, особое внимание уделено уровню открытости бюджета и механизмам обеспечения участия граждан в бюджетном процессе. Исследование основано на международной практике, рассматриваются индексы открытого бюджета, концепция бюджета для граждан и меры по повышению прозрачности бюджетной политики. В заключение статьи предложены практические рекомендации по расширению общественного участия и обеспечению открытости в бюджетных процессах.

Ключевые слова: бюджет, бюджетная система, открытый бюджет, бюджет для граждан, бюджетная политика.

## KIRISH

Davlat budjeti – bu davlatning ma’lum davr uchun mo‘ljallangan pul daromadlari va xarajatlari yig‘indisidir. Budjet daromadlari asosan soliqlar, soliqdan tashqari yig‘imlar, davlat zayomlari, davlat mulkini sotish yoki ijaraga berishdan tushgan mablag‘lar hisobiga shakllanadi. Davlat budjeti davlat moliyasining asosiy bo‘g‘ini sifatida davlat ixtiyoridagi moliyaviy resurslarning shakllanishi va taqsimlanishini ifodalaydi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida ushbu yo‘nalishda tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi “Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli[1] qonun ijrosini ta’minlashga qaratilgan qarori asosida budjet tizimini modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda.

Budjetning daromad qismi aholining jon boshiga hisoblangan ko‘rsatkichi asosida baholanadi va mamlakat budjet salohiyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi tafovut natijasida

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi “Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli qonun: https://www.lex.uz/uz/docs/-6707765

budjet taqchilligi – ya'ni kamomad yuzaga keladi. Budjet kamomadining YaIMga nisbatan 3–3,5% miqdorida bo'lishi me'yoriy holat hisoblanadi. Agar kamomad haddan ziyod ortib ketsa va uni qoplash uchun daromad yetarli bo'lmasa, budjet xarajatlarini qisqartirish zaruriyati yuzaga keladi.

Davlat budjeti har bir mamlakatning iqtisodiy tuzumi, davlat boshqaruvining xarakteri va ijtimoiy siyosatiga bevosita bog'liq. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi natijasida budjetning roli ortib boradi, milliy daromadning katta qismi davlat budjeti orqali qayta taqsimlanadi. Aksincha, sotsialistik yo'nalishdagi oz sonli mamlakatlarda esa budjetning daromadlari davlat sektori, kooperativlar, xususiy korxonalar va aholidan olinadigan soliqlardan shakllanadi hamda u asosan xalq xo'jaligini rivojlantirish va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti – respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlaridan iborat yagona budjet tizimini tashkil etadi [1].

Bugungi kunda davlat moliyasini samarali boshqarish, budjet siyosatini yanada shaffof va ochiq qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "2020 – 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 506-sonli[2] qaror budjet ma'lumotlarining shaffofligini xalqaro standartlar asosida ta'minlash asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiya asosida budjet ma'lumotlarining ochiqligi, "fuqarolar uchun budjet" tushunchasini amaliyotga joriy etish, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish bo'yicha dolzarb ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3917-sonli[3] Qarori doirasida BMTTD va Moliya vazirligining "O'zbekistonda barqaror rivojlanishni moliyalashtirish" qo'shma loyihasi asosida "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va fuqarolarning budjet jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi axborot nashrlari muntazam chop etilmoqda [2]. Bu esa O'zbekistonda ochiq va hisobdor davlat boshqaruvi tamoyillarini kuchaytirish yo'lida muhim qadamlardan biridir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budjetni tashkil etish, uning shaffofligini ta'minlash va budjet jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish masalalari bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida tahliliy yondashuvlar uchraydi. Xususan, demokratiya sharoitida budjet faoliyatining nazariy asoslarini chuqur tadqiq etish va amaliy tajribalarni o'rganish asosan xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Masalan, Timasheva I.V., Sabatovich M.V. va Pazdnikova N.P. o'z tadqiqotlarida mahalliy moliyani boshqarish jarayonida fuqarolarning faol ishtiroki dolzarb masala ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, munitsipal moliya boshqaruvida fuqarolar ishtiroki qarorlar qabul qilish jarayonida ijtimoiy adolat va moliyaviy javobgarlikni kuchaytiradi [3].

Shuningdek, Fedosov V.A. budjetlarning ochiqligi va budjet jarayonida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash davlat moliyaviy salohiyatining kengayishiga, xususan, byudjet daromadlarining ortishiga olib kelishi mumkinligini qayd etadi. U davlat moliyasi sohasida shaffoflik darajasining oshirilishi orqali soliq tushumlari va boshqa daromad manbalarini oshirish imkoniyatlari kengayishini asoslab bergan [4].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi budjet jarayonining shaffofligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy amaliyotni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash maqsadida jamoatchilikni jalb etish hamda budjet jarayonining nazariy asoslari va qonunchilik-me'yoriy bazasini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Tahlil jarayonida davlat budjetining shakllanishi, ochiqlik darajasi, fuqarolarning axborotga bo'lgan erkin kirish imkoniyatlari, "fuqarolar uchun budjet" tashabbuslari va ularning normativ-huquqiy asoslari chuqur o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida budjet ma'lumotlarini e'lon qilish mexanizmlari, axborot resurslari orqali moliyaviy ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik fikrini shakllantirish va ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan siyosiy va institutsional islohotlar tahlil qilindi.

Ushbu yondashuvlar asosida respublikada budjet jarayonining ochiqligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "2020 – 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 506-sonli qaror: https://www.lex.uz/uz/docs/-4966572

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3917-sonli Qarori: https://lex.uz/docs/-3879197

## TAHLIL VA NATIJALAR

Budjet jarayonida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash – olib borilayotgan soliq-budjet siyosati maqsadlarining fuqarolar ehtiyojlariga mosligini va hukumatning hisobdorligini ta'minlovchi muhim vositadir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish doirasida budjet jarayoniga jamoatchilikni keng jalb etish choralari ko'rilmoqda. Xususan, fuqarolarning budjet jarayonidagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash, o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ustuvor va asosiy yo'nalishlarini muhokama qilishda ishtirokini ta'minlash mexanizmlari keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, budjet mablag'larining xarajat yo'nalishlari bo'yicha bu ishtirok alohida ahamiyat kasb etmoqda [5].

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning budjet jarayonidagi ishtirokini ta'minlash tashabbusi ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3917-sonli Qarori asosida ilgari surilgan. Aynan mana shu sa'y-harakatlar natijasida tumanlar budjetidagi qo'shimcha daromadlarning kamida 10 foizini fuqarolar tomonidan taklif qilingan sohalarni (tadbirlarni) moliyalashtirishga yo'naltirish uchun huquqiy va institutsional asos yaratildi.

2021–yilga kelib fuqarolarning budjet jarayonidagi ishtirokini ta'minlashni siyosiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasi sezilarli darajada oshdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021–yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli[4] qarorida tumanlar (shaharlar) budjetlari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizini fuqarolar tomonidan ilgari surilgan takliflarni moliyalashtirishga yo'naltirish belgilandi. Shuningdek, ushbu qarorda tuman va shaharlar budjeti qo'shimcha daromadlarining kamida 30 foizini ham fuqarolar tashabbuslari asosida shakllangan loyihalarga ajratish majburiyati kiritildi.

2021–yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda bittadan tuman/shaharda budjet mablag'larini fuqarolar tashabbuslari uchun taqsimlashning yangi mexanizmi sinov tariqasida joriy etildi. 2022–yildan boshlab esa ushbu amaliyot bosqichma-bosqich mamlakatning barcha tumanlarida to'liq joriy etildi. Fuqarolar tomonidan moliyalashtirish uchun takliflar har yili ikki mavsumda yig'iladi va ularning asosida g'olib loyihalar aniqlanadi.

Fuqarolarning mazkur mexanizm va uning natijalari to'g'risidagi xabardorligi ortgani sayin ularning qiziqishi, ishonchi hamda jarayonga daxldorlik hissi ham shunga yarasha oshib borishi zarur. Hozirgacha erishilgan natijalar ko'lami haqida tasavvur hosil qilish uchun quyidagi raqamlar yetarli asos bo'la oladi. Jumladan, fuqarolarning budjet jarayonidagi ishtirokini ta'minlash doirasida ajratilayotgan budjet mablag'lari hajmi oshgani sari, fuqarolar tomonidan kiritilgan takliflar soni 2019–yildagi 28 704 tadan 2022–yilda 69,7 mingtagacha oshdi.

Shuningdek, turli tashabbuslar uchun ovoz bergan fuqarolar soni 2019–yilda 87,7 ming bo'lgan bo'lsa, 2022–yilda bu ko'rsatkich 6,7 millionga yetdi. Moliyalashtirish uchun tanlab olingan loyihalar soni esa 1 102 tadan 2 354 tagacha ko'paydi. Ushbu raqamlar ortida o'z tashabbuslari bilan mahalliy infratuzilmaviy muammolarni hal qilishga, shuningdek, o'zlari va qo'shnilari hayotini yanada qulaylashtirishga intilgan faol fuqarolar turibdi.

O'zbekistonda tashabbusli budjetlashtirish mexanizmi – davlat tomonidan muntazam rejalashtirish jarayonida navbatini uzoq kutishi mumkin bo'lgan, ammo muhim bo'lgan mahalliy tashabbuslarni ilgari surishda fuqarolar uchun dolzarb vositaga aylanmoqda. Bundan tashqari, fuqarolar tomonidan tanlov komissiyalariga taqdim etilgan loyihalar mavjud investitsiya rejalari bilan mos tushgan taqdirda, ular bu haqda xabardor qilinadi.

Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha amaliyotlarni joriy etish va kengaytirish, bir tomondan, kambag'allikni qisqartirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, ta'lim, sog'liqni saqlash va savdo bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali kambag'allikning barcha shakllariga barham berishga qaratilgan BMTning 1–sonli Barqaror rivojlanish maqsadiga (BRM) erishishga muhim hissa bo'lib xizmat qiladi.

Tashabbusli budjetlash, ayniqsa, infratuzilmasi zaif, ko'p yo'llari asfaltlanmagan va yog'ingarchilik mavsumida foydalanish qiyin bo'ladigan qishloq joylarda ayniqsa samarali bo'lmoqda. Yil davomida yo'llarning yomon holatda bo'lishi aholini ishga, bolalarni esa maktabga qatnashiga to'sqinlik qiladi. Bu esa aholining harakatlanish imkoniyatlari, transport vositalarining samarali faoliyati va qishloqda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki hamda mintaqaviy bozorlarga olib chiqilishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy qoloqlikni keltirib chiqaradi.

Garchi ushbu sohada sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, tizim samaradorligini yanada oshirish va jalb etilgan fuqarolar sonini ko'paytirish uchun hali ham katta imkoniyatlar mavjud. Birinchidan, fuqarolarning budjet qarorlarini qabul qilishdagi ishtiroki to'g'risida xabardorligini oshirish – ularning real ishtirokini ta'minlovchi asosiy shartlardan biridir. Aks holda, fuqarolar ishtiroki faqat rasmiyatchilik darajasida qolib ketishi mumkin.

Shu sababli, targ'ibot-tashviqot tadbirlarini kengaytirish, budjet jarayonidagi ishtirok mexanizmlari, ularning imkoniyatlari va afzalliklari haqida aholining xabardorlik darajasini oshirish zarur. Bu esa fuqarolarni budjetlashtirish jarayonida yanada faol ishtirok etishga undaydi.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021–yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qaror: https://lex.uz/uz/docs/-5370805

Bundan tashqari, budjet savodxonligini oshirish orqali fuqarolarga budjet jarayonining barcha bosqichlarida – taklif berish, muhokama qilish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish – imkoniyatini yaratish muhim ahamiyatga ega. Aholi vakillari faqat taklif beruvchi emas, balki qarorlarni tahlil qilish va ularning bajarilishini nazorat qilish subyektiga aylangandagina tizim chinakam samarali ishlaydi.

Fuqarolarning budjet jarayonidagi ishtirokini ta'minlash asosida moliyalashtirilayotgan loyihalarning ijrosini monitoring qilishda fuqarolik jamiyati tashkilotlarining oʻrni muhim ahamiyatga ega. Ularni jarayonga yanada keng jalb etish maqsadida trening dasturlarini ayollar, yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar va boshqa ijtimoiy zaif guruhlar uchun moslashtirilgan ta'lim modullari bilan boyitish mumkin. Shu bilan birga, budjet jarayonidagi fuqarolik ishtirokini qoʻllab-quvvatlovchi ilgʻor tajribalar, amaliy yoʻriqnomalar va oʻquv kurslarini ishlab chiqish, ularni hujjatlashtirish va tizimli tarzda tarqatish dolzarb vazifa sanaladi.

Fuqarolarning budjet jarayonidagi ishtirokini ta'minlash boʻyicha ilgʻor amaliyotlarni kengaytirish, koʻp jihatdan, moliyalashtirish imkoniyatlarining mavjudligiga bogʻliq. Tashabbuslarni birgalikda moliyalashtirish uchun esa turli qoʻshimcha manbalardan, jumladan, kraudfanding (jamoaviy moliyalashtirish), diaspora mablagʻlari, korporativ xayriya va boshqa ijtimoiy investorlar ishtirokidan foydalanish mumkin. Natijada, davlat loyihalarini amalga oshirishda nafaqat davlat resurslari, balki xususiy sektor hamda fuqarolarning oʻz mablagʻlarini safarbar qilish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa loyihalarning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi va ularni amalga oshirish jarayonida fuqarolarning bevosita ishtirokini kuchaytiradi. Albatta, bu imkoniyatlar faqat jamoatchilik tomonidan qabul qilingan va amalda amalga oshirilishi mumkin boʻlgan loyihalar doirasida joriy etilishi zarurligini alohida ta'kidlashga hojat yoʻq [6].

Budjet mablagʻlaridan samarali foydalanishni tashkil etish, shuningdek, soliq toʻlovchilarning budjet savodxonligini oshirish orqali budjet tushumlarini koʻpaytirish hamda xarajatlar samaradorligiga erishish boʻyicha mamlakatimizda izchil ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, 2024–yilda tashabbusli budjet jarayonlari yangi bosqichga koʻtarildi. Ovoz berish jarayonlari yanada shaffoflashtirildi, fuqarolar fikri asosida mablagʻlar taqsimoti kuchaytirildi, mavsumiy jarayonlar optimallashtirildi va qonunchilik hujjatlari qayta koʻrib chiqildi.

2024–yilda erishilgan asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

a) 2024–yildan boshlab "Bir fuqaro – bir ovoz" tamoyili joriy qilindi. Bu tamoyil ovoz berish jarayonlarining adolatli va shaffof oʻtishini ta'minlashi bilan birga, fuqarolarning ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, qamrov koʻrsatkichlari orqali hududlar kesimida fuqarolarning ishtirok darajasini tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Masalan, 2024–yil 1–mavsum doirasida respublika boʻyicha aholining 34 foizi ovoz berishda ishtirok etdi. Eng faol hududlar sifatida Qashqadaryo, Samarqand va Fargʻona viloyatlari qayd etildi.

b) Ovoz toʻplashga qaratilgan diqqat-e'tiborni kamaytirish va jarayonni soddalashtirish maqsadida "Mening yoʻlim" loyihasi Tashabbusli budjetning 1–mavsumi bilan birlashtirildi.

v) Loyihalarni shakllantirish bosqichi toʻliq raqamlashtirildi, tovar va xizmatlar klassifikatori joriy qilindi. Bu esa gʻolib loyihalarni amalga oshirishda erishilayotgan natijalarni oʻlchash va samaradorlikni baholash imkoniyatini yaratdi. Masalan, nechta maktab nechta oʻquv partalari bilan ta'minlangani yoki nechta tibbiyot muassasasi qanday tibbiy uskunalar bilan jihozlangani haqida ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

g) Tuman va shahar tasdiqlangan budjetlari hisobidan ajratiladigan mablagʻ hajmi 10 foizgacha oshirildi (ilgari bu koʻrsatkich 5 foiz edi). Natijada, bir mavsum doirasida har bir tuman va 147 shaharda gʻolib boʻlgan loyihalar soni oʻrtacha 7–8 taga oshib, 15 taga yetdi. Bu esa gʻoliblik uchun kerak boʻlgan ovozlar sonining kamayishiga olib keldi.

d) Yosh avlodda budjet jarayoni toʻgʻrisida dastlabki tushunchalarni shakllantirish va ularning moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida 2024–yilda "Mening maktabim" loyihasi sinov tariqasida har bir hududda bittadan tuman (shahar)da oʻtkazilishi belgilandi. Har bir umumta'lim maktabiga 50 mln soʻmdan (jami 32,3 mlrd soʻm) mablagʻ ajratildi. Loyihalarni shakllantirish va ovoz berish jarayonlari oktyabr oyida oʻtkazilishi rejalashtirilgan.

e) 2024–yildan boshlab Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoniga muvofiq, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida davlat budjetidan ajratiladigan mablagʻlarning kamida 50 foizi "yashil bogʻlar" va "jamoat parklari"ni yaratishga yoʻnaltirilishi belgilandi. Ushbu mablagʻlar "Ochiq budjet" portali orqali "Mening bogʻim" loyihalarini moliyalashtirish uchun sarflanadi.

2024–yilning may oyida mazkur loyiha birinchi marta amalga oshirildi. Fuqarolar tomonidan 789 ta loyiha shakllantirildi, ovoz berish natijalariga koʻra 215 ta loyiha gʻolib deb topildi. Ularni moliyalashtirish uchun davlat budjetidan 52 mlrd soʻm ajratilishi belgilandi.

Birgalikda moliyalashtirish amaliyotining afzalliklari quyidagilardan iborat:

Fuqarolarning ishtirokini oshiradi – ular oʻzlari muhim deb hisoblagan loyihalarga hissa qoʻshish orqali budjet taqsimotiga bevosita ta'sir oʻtkazish imkoniyatiga ega boʻladi.

Mavjud resurslarni kengaytiradi – qoʻshimcha moliyaviy manbalar hisobidan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati oshadi. Bu esa resurslar cheklangan sharoitda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaffoflik va javobgarlikni kuchaytiradi – fuqarolar o‘z mablag‘larini loyihalarga sarflayotgan ekan, ular budjet jarayonlarida shaffoflikni va nazoratni kuchaytirishga intiladilar. Bu esa umumiy ishonch muhitini mustahkamlaydi [7].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Budjet shaffofligini ta’minlashning konseptual asoslari hamda jamoatchilikni budjet jarayoniga jalb qilish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar davlat moliyasini demokratlashtirish yo‘lida mazkur jarayonlarni rivojlantirishning shubhasiz dolzarbligini isbotlaydi. Ushbu yondashuvlar moliyaviy boshqaruvda ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, budjetning shaffofligini ta’minlash va budjet jarayonida jamoatchilik ishtirokini qonuniy tartibga solishning mavjudligiga qaramasdan, xalqaro ekspertlar xulosalariga ko‘ra, O‘zbekistonda budjet ochiqligi hali to‘liq darajada ta’minlanmagan. Bu esa mavjud muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan amaliy mexanizmlarni yanada chuqurlashtirish va kuchaytirishni taqozo etadi.

Xususan, bu borada qiyosiy ko‘rsatkichlarni (Open Budget Index kabi) inobatga olgan holda, o‘tgan va kelgusi yillar uchun budjet ma’lumotlarining to‘liqligi, budjet qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratish lozim.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Budjet jarayonining har bir bosqichida fuqarolik jamiyatining vakillik ishtirokini mustahkamlash – ushbu ishtirokni qonuniy asosda doimiy rag‘batlantirish orqali fuqarolarning moliyaviy qarorlar ustidan nazoratini kuchaytirish zarur.

Ochiq budjet portallarining funksional imkoniyatlarini kengaytirish – budjet ma’lumotlarining grafik, interaktiv va joriy statistik ko‘rinishda doimiy yangilanishini ta’minlash lozim.

“Fuqarolar uchun budjet” loyihalarini yanada rivojlantirish – fuqarolarni tushunarli tilda budjet axborotlari bilan muntazam tanishtirib borish orqali budjet savodxonligini oshirish muhim.

Moliyaviy qarorlar bo‘yicha muhokama va maslahatlashuv mexanizmlarini kuchaytirish – mahalliy darajada jamoaviy yig‘ilishlar, ochiq eshik kunlari va onlayn ovoz berish tizimlarini doimiy qo‘llash tavsiya etiladi.

Ilg‘or xorijiy tajriba asosida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish – budjet ochiqligi va jamoatchilik ishtirokini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha aniq me’yorlar joriy etilishi lozim.

Umuman olganda, budjet shaffofligini ta’minlash va fuqarolarning budjet tizimidagi ishtirokini kengaytirish O‘zbekistonda davlat boshqaruvining barqarorligi, ochiqligi va ijtimoiy ishonchini mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonlarni takomillashtirish mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasiga to‘laqonli xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vahobov A.V., Srojiddinova Z.X. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti: O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2002.
2. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – B. 316.
3. Тимашёва И.В., Сабатович М.В., Паздникова Н.П. Вопросы участия граждан в управлении муниципальными финансами региона // Наука XXI века: актуальные направления развития. 2017.
4. Федосов В.А. Повышение открытости бюджетов и общественного участия в бюджетном процессе в Российской Федерации // Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 2017.
5. Vazirlar Mahkamasining 2020–yil 24–avgustdagi 506–son qarori.
6. https://www.undp.org/uz/uzbekistan/blog/tashabbusli-budjet-sinovdan-yangi-amaliyotlar-sari
7. https://api.mf.uz/media/filestore/Budjetnoma_2025_BmO2cnx.pdf

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 4**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz